



О‘QUVCHI SHAXSINING IJTIMOYIY MUNOSABATLARGA TAYYORLASH METODIKASI

Usmonov N.B.

Qarshi davlat universiteti katta o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: tarbiya, tarbiya jarayoni, ijtimoiy ong, ijtimoiy hayot, ijtimoiylashuv, hamkorlik faoliyati, shaxslararo munosabatlar, yoshlar, ijtimoiy ahloq, ziddiyatlar, faollik, o‘zini o‘zi boshqarish, estetik tarbiya, bag‘rikenglik.

Ключевые слова: образование, образовательный процесс, общественное сознание, общественная жизнь, социализация, совместная деятельность, межличностные отношения, молодежь, социальная этика, конфликты, активность, самоуправление, эстетическое воспитание, толерантность.

Key words: education, educational process, social consciousness, public life, socialization, joint activities, interpersonal relationships, youth, social ethics, conflicts, activity, self-government, aesthetic education, tolerance.

Резюме: Ushbu maqolada o‘quvchi-yoshlarni ta‘lim jarayonida ijtimoiy hayotga tayyorlash va ularda ijtimoiylashuv faolligini oshirish masalalari haqida fikr yuritiladi.

Резюме: В данной статье рассматриваются вопросы подготовки молодых людей к общественной жизни в процессе обучения и определения в них социальной активности.

Summary: This article discusses the issues of preparing young people for social life in the learning process and determining social activity in them.

Insonning ijtimoiy olam bilan aloqasi uning insoniyat tajribasi, madaniyati va qabul qilingan, tan olingan ijtimoiy xulq normalari doirasidagi harakatlarida namoyon bo‘ladi. Abu Nasr Farobiy, A.Navoiy, Ibn Sino, Beruniy kabi yuzlab Sharq allomalari ham bu o‘zaro bog‘liqlikning falsafiy va ijtimoiy sirlarini ochishga o‘zlarining eng durdona asarlarini bag‘ishlaganlar. Barcha qarashlarga umumiy bo‘lgan narsa shu bo‘lganki, odamni, uning mohiyatini anglash uchun avvalo shu jamiyatda to‘ngan o‘rni va mavqegini bilish zarur. Hozirda dunyoning ijtimoiy, siyosiy va mafkuraviy manzarasi o‘zgariyotgan, noaniqlik, beqarorlik hukm surayotgan, ommaviylashuv davrida barcha sohalarga, jumladan, ta‘limga bo‘lgan talablar va majburiyatlarga tayyorgarlik zarurati yuzaga chiqmoqda va kuchaymoqda. O‘qitishning samarali mexanizmlarini amalga oshirishda

o'qituvchilarning o'ziga xos va mos zaruriy kompetensiyalarga ega bo'lishi bugungi kunning muhim talabiga aylangan.

Tarbiya - shaxsni maqsadga muvofiq shakllashtirish uchun uyushtirilgan pedagogik jarayon bo'lib, tarbiyalanuvchining shaxsiga muntazam va tizimli ta'sir etish imkoniyatini beradi. Tarbiya jarayoni o'zaro bog'liq bo'lgan ikki yoqlama faoliyatni pedagog va o'quvchi faoliyatini o'z ichiga oladi. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchining ongi shakllanadi, his-tuyg'ulari rivojlanadi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan va ijtimoiy aloqalarga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil qilinadi.

Huquqiy tarbiyada esa shaxsga nisbatan huquqiy ongni, huquqiy munosabatlarni, qonunga itoatkor xulq-atvor ko'nikmalari va odatlarini shakllantiruvchi uyushgan, aniq maqsadni ko'zlagan holda ifodalanadi. Shaxsni o'rganishning birlamchi mezonini ham shundan kelib chiqqan holda, uning ijtimoiy mavqei, ijtimoiy munosabatlar tizimidagi o'rni bilan belgilanadi. Jamoani boshqarish, maktab ta'limida sog'lom muhitni ta'minlash, hamkorlik faoliyatining samaradorligini oshirish, shaxslararo munosabatlarning yuksak darajasini vujudga keltirish, nizoli, ziddiyatli, mojaroli ijtimoiy vaziyatlarning oldini olish muhimdir.

Ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining munosabatlarida yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarni ijtimoiylashuv mexanizmlarining maktab ta'limiga muvafaqqiyatli tadbiq etish orqali yechish mumkin. O'qituvchining sinfda ziddiyatlarni hal eta olishi hamda samarali muloqot uchun zaruriy sharoitini yaratishi, o'zining fuqarolik pozitsiyasini namoyish etishi va o'quvchilarda faollikni shakllantirish uchun barcha imkoniyatlardan foydalanishi kerak. Dars jarayonida o'quvchilarning muayyan masalaga munosabat bildirish madaniyatini va o'z ona tilidan to'g'ri foydalanishi, hamjihatlik va maxalliy birdamlikni amalga oshirishi juda muhimdir.

Pedagoglar o'quvchilar guruhlarini bilan ishlashi, ota-onalar bilan hamkorlik aloqalar o'rnatishi va ularni rivojlantirish, ta'lim-tarbiya masalalariga ongli ravishda shaxsiy munosabatini belgilash bilan birga o'z kasbiy faoliyatidagi yutuqlaridan foydalanishi, ishtirokchilarga ijobiy ta'sir ko'rsatgan holda ta'lim-tarbiya sifatini yaxshilashni rag'batlantirish ishlarida qatnashishi lozim. O'qituvchi kasbiy faoliyatining asosini tashkil etuvchi qadriyatlar – ular tomonidan qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etib, kasbiy faoliyatida har qanday vaziyatlarda maqsadli harakat va samarali munosabatni ta'minlaydi.

O'quvchi shaxsi - ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarning mahsuli, ongli faoliyatning sub'ekti bo'lib, shaxsga taaluqli bo'lgan eng muhim tasnif bo'yicha jamiyatdagi murakkab ijtimoiy munosabatlarga bevosita aloqador,



ijtimoiy faoliyatga nisbatan ham ob'ekt, ham sub'ektga aylanadi. O'qituvchi ta'lim berish bilan birga tarbiyalash funksiyalarini ham bajaradi. Albatta, o'qituvchi u yoki bu holatlarda o'quvchilarga tasir ko'rsatadi va ularning xulqini rejalashtirilgan harakatlar bilan modellashtiradi. Ijtimoiylashtirish nafaqat jamiyatda balki maktablarda ham muhim funksiyalardan biri bo'lib, ya'ni maktab o'quvchilariga ijtimoiy me'yorlarni tushuntirishga va ularga rioya qilishga o'rgatadi. Rejalashtirish jarayonida davlatning ta'lim sohasidagi siyosatining ustuvorligi, maktab-mahalla-oila hamkorligi, milliy madaniyat, tarix va an'analarni inobatga olinishi, tanqidiy fikrlash, kreativlikni rivojlantirish, o'qishga motivatsiyalarni qo'llab-quvvatlash zarur.

O'quvchilarda estetik tarbiyani rivojlantirish orqali ularni san'atga, atrof muhitga muhabbat va hurmatni shakllantirish, estetik tarbiyaning maqsadlarini bolalarda yuqori did, xissiyotlar va estetik faoliyatga ehtiyojni rivojlantirishga erishiladi. O'qituvchi tomonidan darsning tarbiyaviy maqsadi belgilanadi, o'quvchilar harakatidagi o'zgarishlar kuzatilib, natijalar aniqlanadi. Agar o'quvchilar o'z xulqini o'zgartirsa, demak o'qituvchi tomonidan qo'yilgan tarbiyaviy maqsadlarga erishilgan hisoblanadi. O'qituvchi muammolarni oldini olish uchun qoidalarni oldindan xabardor qilishi va tushuntirishi shart. O'qituvchi qoidalarni tushuntirganda, o'quvchilarga tushunarli tilda, mavhum tushunchalarni ishlatmasdan, qoidalarga rioya qilishni ko'rsatadigan kutilgan xatti-harakatni nomlash kerak. Qoidalar o'quvchilarga ma'lum bo'lsa, hamma o'quvchi teng ravishda amal qilishi kerak. Qoidalarning bajarilishi nazorat qilinmasa yoki turli o'quvchilar qoidalarga turli yo'llar bilan rioya qilsalar, ertami-kechmi qoidalar qadrsizlanadi.

Tarbiya umume'tirof etilgan qadriyatlariga asoslanadi, o'qituvchi doimo ularni o'quvchilar tushunishi va o'zlashtirishi uchun tushuntirishga va shakllantirishga xarakat qiladi. O'qituvchi tomonidan shakllantirilgan qadriyatlar kundalik faoliyatda, qabul qilinadigan qarorlarda va muammolar hamda nizolarni ijtimoiy va fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish maqsadida o'quvchilarning o'zini-o'zi boshqarishga o'rgatishga qaratilgan tarbiyaviy faoliyat juda muhim hisoblanadi. O'quvchilarning o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyati rasmiy bo'lmasada, aniq natijalarga olib kelishi mumkin. Maktabda o'zini o'zi boshqarish organlarining ish qoidalari, shu jumladan o'quvchilar ishtirokida qoidalarni tanlanadi va ishlab chiqiladi. Ushbu organ maktab ma'muriyati va o'qituvchilari oldida barcha o'quvchilar manfaatlarini ifodalashi kerak bo'ladi.

Muloqot – ta'lim va tarbiyaning asosini tashkil etadi. Muloqot o'qituvchi va o'quvchilarning hulq-atvori va faoliyatini tashkil qiladi, ularning mehnati va harakatlarini baholaydi. Qaror qabul qilishda o'quvchining faol ishtirokchiga

aylanishiga imkon beradi. Bu muammoli vaziyatlarni muhokama qilish, yuzaga keladigan nizolarning oldini olish va hal qilishga ko'maklashadi.

Bag'rikenglik keng ma'noda insoniyat tomonidan yaratilgan madaniyatlarni, boy qadriyatlarining xilma-xilligini, inson individualligini hurmat qilishni qabul qilish va tushunishdir. Rivojlangan g'arb mamlakatlarida o'quvchilarni bag'rikenglikka o'rgatish ta'limning dolzarb vazifasiga aylangan. Aynan maktab ta'limida o'quvchi yoshlar bag'rikenglik g'oyalari bilan tanishadilar. Bag'rikeng o'qituvchigina bag'rikeng shogirdni tarbiyalay oladi. Bag'rikenglik shunchaki e'lon qilingan qadriyat bo'lishi mumkin emas, u o'qituvchi qiyofasida namoyon bo'lishi kerak.

O'quvchilarda oliy qadriyat sifatida bag'rikenglikni shakllantirish ularda shaxsiy xususiyatlarni va ijtimoiy hulq-atvoridagi farqlarni hisobga olishni taqozo qiladi. Bu jarayonida madaniy va etnik muhitlarni haam hisobga olish kerak. Masalan, sinfda tili, millati bilan farq qiladigan boshqa millat vakillari bo'lganda, ularning an'analari va qadriyatlari hammaga tushuntirish kerak. Bu o'quvchilarning bir - birlarini o'zaro tushunishiga yordam beradi.

Xulosa shuni aytish mumkinki, zamonaviy o'qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetishi hamda bu borada o'quvchilarga to'g'ri, asosli ma'lumotlarni muntazam berib borishi lozim. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarga shaxs sifatida qarash va do'stonal qilish usullarida namoyon bo'lishi kerak. munosabatda bo'lishni ta'minlanishi yangi avlod kadrlarini tarbiyalashda eng muhim vazifa bo'lib qolaveradi.

ADABIYOTLAR:

1. Ochilova G.O. Musaxanova G.M. Pedagogik mahorat. 2014. – 221 bet.
2. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T.: Cho'lpan. 2013. - 187 bet.